10-topshiriq. Buxgalteriya tizimida qo‘llaniladigan ADP foydalangan holda VENN DIAGRAMMASINI yarating.

Mavzuga oid savollar:

1. Buxgalteriya o‘zi nima?
2. Buxgalteriya tizimi nima?
3. Buxgalteriya hisobini axborot texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?
4. Buxgalteriya hisob-kitoblarini masofadan barajish texnologiyasi qanday amalga oshiriladi?
5. Buxgalteriya ADPri nima uchun kerak?
6. Buxgalteriya ADPrini SAP va MS Excel bilan so‘lishtiring.

12-mavzu. Sug'urta faoliyatida axborot komplekslari va texnologiyalari


REJA:

1. Sug'urta faoliyatida axborot komplekslari haqida tushuncha.
2. Sug'urta faoliyatida axborot texnologiyalarining qo'llanishi.
3. Sug'urta faoliyatidagi amaliy dasturiy paketlar (AMP).
4. Internet sug'urta va online sug'urtaning ishlash texnologiyasi.

1-topshiriq. Sug'urta faoliyatini O'zbekistonda rivojlanish tendentsiyalarini izohlang.

2-topshiriq. Internet sug'urta texnologiyasini izohlang.

3-topshiriq. Sug'urta faoliyatidagi amaliy dasturiy paketlar (AMP)dan foyalanish texnologiyasi.



4-topshiriq. Keltirilgan matni o'qib 5 minutlik esse yozing.

Sug'urta faoliyati haqida tushuncha. Tabiiy va boshqa stixiyali kuchli ta'siri natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash, oldini olish hamda ogohlantirish uchun maqsadli yo'nalishdagi pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisiga sug'urta deyiladi.

Sug'urtaning xarakterli belgilari quyidagilardan iborat:

❖ Sug'urta riskining mavjudligi. Risk-sug'urta munosabatlari paydo bo'lishining asosiy shartidir. Risk bo'lmas ekan, sug'urtaning bo'lishi mumkin emas. Riskning hajmi, miqdori ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullari yordamida aniqlanadi.

Sug'urta risklarini tahlil qilish ularni 2 ta yirik guruhga bo'lishni taqozo etadi.

1. Sug'urtaviy.

2. Sug'urtasiz.

Sug'urta shartnomalarida o'z aksini topgan risklar sug'urtaviy risklar deyiladi.

Risk bahosining pulda ifodalanishi sug'urta stavkasini tashkil etadi.

Risk doimiy ko'rsatkich emas, balki u doimo o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlar iqtisoddagi va boshqa sohadagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Sug'urta tashkiloti riskning rivojlanishini, holatini doimo kuzatish lozim, ya'ni tegishli statistik hisob olib borishi, yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlashi va tahlil qilishi kerak.

Sug'urta munosabatlarida quyidagi tomonlar qatnashadilar:

Sug'urtalovchi – sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar. Tadbirkorlik faoliyatining muhim bo'g'ini hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, sug'urta shartnomasiga muvofiq, sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar turli mulk shakliga ega bo'lishi mumkin (davlat sug'urta tashkilotlari, aksionerlik sug'urta tashkilotlari hamda o'zaro sug'urtalash jamiyatlari). Sug'urta faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar davlat organlarining tegishli litsenziyasiga ega bo'lishi zarur.

Sug'urtalanuvchi – sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabati o'rnatgan va tegishli sug'urta mukofotlarini to'lovchi yuridik yokijismoniy shaxs.

Sug'urta vositachilari (sug'urta brokerlari)-sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik fazifasini bajaruvchi yuridik shaxs. Maqomi bo'yicha vositachi sug'urtalanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. Ko'rsatgan xizmatlari uchun vositachi sug'urtalanuvchi emas, balki sug'urta tashkilotidan tegishli vositachilik haqini oladi.¹

5-topshiriq.“Sug'urta polisi” so'ziga KLASTER yarating.

6-topshiriq. Keltirilgan matnni o'qib 5 minutlik esseyozing.

Sug'urta xizmatlari iste'molchilariga xizmat ko'rsatish sohasida aynan zamonaviy AKTlarni joriy qilinishi raqobatchilar bilan kurashda qo'shimcha ustunliklarni beradi. Sug'urta tashkilotlarida ERP tizimlaridan tashqari CRM (customer relationship management) boshqaruv tizimlaridan hozirgi kunda keng foydalanib kelinmoqda. CRM – strategiyalari mijozlarga xizmat ko'rsatish, savdo va marketing sohasidagi biznes jarayonlarni avtomatlashtirish va takomillashtirishga imkon beruvchi maxsus texnologiyalar va dasturiy ta'minotlar majmuasi ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu esa xizmatlar buyurtmachilariga eng optimal vaqt mobaynida va eng qulay aloqa tarmoqlari orqali daromad keltiruvchi takliflar qilish imkoniyatini beradi.

Sug'urta tarmog'idagi hozirgi vaziyatda biznes tuzilishini aniq darajada ishlab chiqish, risklarning real darajasini bexato baholash hamda bu risklar bahosini mos holda belgilashga imkon beruvchi Business Intelligence (BI) vositalaridan foydalanish lozimdir.

Business Intelligence(tadbirkor intellekt) tizimini sug'urta tashkilotlarida joriy qilish analitik axborotlar muhitiga tegishli bo'lgan quyidagi ko'rsatkichlarni samarali ta'minlab beradi:

- Ma'lumotlarni o'z vaqtida va aniq kiritish;
- Ma'lumotlar integratsiyasini amalga oshirish;
- Ma'lumotlarni interpretatsiya qilishning soddaligi;
- Ma'lumotlar mutanosibliigi;
- Axborotlardan hamkorlikda foydalanish.

Sug'urtachilar BusinessIntelligence turidagi dasturiy mahsulotlar yordamida quyidagi ko'rinishdagi jarayonlarni amalga oshirib, bu ularga turli vaziyatlardagi risklarni oldindan aniqlash va boshqarishga imkon beradi:

- manfaatlimijozlarnisaralabolish;
- bulibutganyukotishlarnitaxlilkilish;
- moskelishliknitaxlilkilish;

¹“Sug'urta ishi” fanidan ma'ruza matni. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, funktsiyalari va bozor sunosabatlaridagi o'rni. TMI.Toshkent.2010yil.

- muvofiklashtirilgan marketingdan foydalanish;
- kompaniya faoliyatini taxlil qilish.

Aynidamda sug'urta kompaniyalarini institutsional rivojlantirishdagi eng progressiv AKT Internet-sug'urta hisoblanadi.

Internet-sug'urta-bu mijozni sug'urta kompaniyasi (bevosita uzining sayti orqali) bilan kelgusida zarur sug'urta mahsulotini tanlash uchun virtual muloqot qilish va o'z navbatida joriy xizmatlarni namoyish qilish, sug'urta qoplamalarini olishni Internet-texnologiyalaridan foydalanib amalga oshirishga imkon beruvchi moliyaviy bozor segmentidir.

Sug'urta kompaniyalari birinchi bosqichda xususiy Internet saytlarini yaratishlari lozim va bu elektron vizitka funksiyasini amalga oshirib, unda mijoz bilan aloqalarni o'rnatish yo'llari haqidagi ma'lumotlar, litsenziyalar, sotiladigan mahsulotlarning qisqacha tasniflari berib boriladi.

Keyingi bosqichda sug'urta kompaniyalari o'z Internet – vakolat xonalarini rivojlantirish yo'lida e'tiborlarini mukofotlarini onlayn-to'lovlar orqali amalga oshirish, mijozni sug'urta ro'yxatiga kirishi va personllashtirilgan ma'lumotlarni yangilab borish kabiyo'nalishlardagi sug'urta xizmatlariga qaratishlari lozim.

Ayni damda respublikamiz sug'urta kompaniyalari Internet sug'urta segmentidagi Internet muhitida ikki yo'nalishdagi biznes yechimlardan biridan foydalanib faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar:

- Internetda sug'urta biznesini tashkil qilish (virtual vakolat xonalar ochish; Internet orqali sug'urta polislarini olish; sug'urta shartnomalarini Internet orqali kuzatib borish; barcha sanab o'tilgan sug'urta ko'rinishlarini birlashtiruvchi portallar)
- Internet bilan bog'liq risklarni sug'urta qilish (kiberjinoyatchilik; elektron qurilmalarni sug'urta qilish; moliyaviy risklarni sug'urta qilish; turli ko'rinishdagi javobgarliklarni sug'urta qilish va boshqalar).

O'zbekistonda Internet sug'urtani rivojlantirilishi istiqbolli ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasida 2003 yil dekabr oyida qabul qilingan «Elektron raqamli imzo haqida», 2004 yil may oyida qabul qilingan «Elektron tijorat haqida», «Elektron hujjat aylanish tizimi» haqidagi qonunlar bu tizimni rivojlantirishning huquqiy asoslari hisoblanadi.

Yangi turdagi bunday xizmatlarni joriy qilish kelgusida sug'urta xizmatlari bozori hajmining o'sishi, mijozlarga samarali va sifafali xizmatlar ko'rsatish, kompaniya daromadlarini o'sishiga shu bilan birga raqobat bardoshligini oshishi, sug'urta kompaniyasini tashqi bozorda ham samarali faoliyat yuritish imkoniyatlariga ega bo'lishlariga xizmat qiladi.

Mavzuga oid savollar

1. Sug'urta deganda nimani tushinasiz?
2. Sug'urta faoliyatini avtomatlashritish nimalardan iborat?
3. O'zbekistonda nechta sug'urta kompaniyalari mavjud va ularning internet saytlarining vazifasi?
4. Internet sug'urta o'zi nima?
5. Sug'urta tarmoqlari xavfsizligini ta'minlash nimalardan iborat?

13-mavzu. Soliq tizida axborot komplekslari va texnologiyalari

REJA:

1. Soliq tizimida haqida tushuncha.
2. Soliq tizimida axborot komplekslari va texnologiyalarini qo'llash.
3. Soliq tizimida amaliy dasturiy paketlar (AMP).
4. SI AIJ, UReports 2019 va web dasturlarining ishlash texnologiyasi.

1-topshiriq. SIAIJ-4 dasturiy majmuasi yordamida shakllantiriladigan hisobot shakllarini izohlang.

2-topshiriq. Keltirilgan matnni o'qib 5 minutlik esse yozing.

SIAIJ-4 Dasturiy majmuasining hisobotlar moduli orqali reyestrli, statistik, tahliliy hamda ma'lumotlar bazasini reviziyadan o'tkazish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi, jumladan:

➤ **Reyestrlar:**

- 1) Qo'yilgan inkassalar va ularning ijrosibo'yicha;
- 2) Soliq to'lovchilar tomonidan 2-sonli kartotekaga qo'yilgan to'lov topshiriqnomalari (platejka) va ularning ijrosibo'yicha;
- 3) Debitorlariga qo'yilgan inkassolar va ularning ijrosito'g'risida;
- 4) Bir soliq turidan to'lovni boshqa soliq turiga ko'chirishlar bo'yichareyestr;
- 5) Soliq to'lovchining hisob raqamiga qaytarilgan summalar to'g'risidama'lumot;
- 6) «Bir martalik operatsiya»lar yordamida kiritilgan summalarreyestri;
- 7) SIAIJ-3da «Kurator» roli bilan kiritilgan summalarreyestri;
- 8) To'lov muddati uzaytirilgan, hisobdan chiqarilgan soliq qarzi summolari to'g'risida ma'lumot;
- 9) Tekshiruv natijalariga ko'ra kiritilgan 10-shaklma'lumotlari;
- 10) Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga tushgan tushumlarro'yxati;
- 11) Soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha kunlik umumiy tushum (qaytarilgan) summolari to'g'risidama'lumot;
- 12) Korxonalar reyestri (barcha rekvizitlari aks ettirilganholda);
- 13) Oylik hisobotlarni topshirgan korxonalar ro'yxati va summasi to'g'risidama'lumot;
- 14) Choraklik hisobotlarni topshirgan korxonalar ro'yxati va summasi to'g'risidama'lumot;
- 15) Kunlik hisobotlarni topshirgan korxonalar ro'yxati va summasi to'g'risidama'lumot;
- 16) Elektron ko'rinishda topshirilgan hisobotlar reyestri;

17) Bank-GNIdagi mavjud tushumlarreyestri.

➤ **Statistikma'lumotlar:**

1) Byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga tushumlar dinamikasi (1-Nhisobotidan)

2) Maqsadli sxemalar orqali tushgan mablag'lar to'g'risidahisobot;

3) Belgilangan prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishi to'g'risidama'lumot;

4) 1-N dasturidagi 6502 ko'rinishdagi fayllardan olinadiganma'lumotlar;

5) Byudjet bo'yicha belgilangan asosiy 7ta soliq turi bo'yicha belgilanganprognoz ko'rsatkichlarining bajarilishiahvoli;

6) Korxonalar holati bo'yicha statistikma'lumot;

7) Soliq to'lovchilarning qarzlari va ortiqcha to'lovlari bo'yichama'lumot;

8) Soliq turlari bo'yicha ma'lum davrga hisoblangan va to'langan, soliq qarzi va ortiqcha to'lov, shuningdekpenyalar;

➤ **Tahliliyhisobotlar:**

1) Shaxsiykartochkalardahaqiqatdahisoblanganvato'langansoliqlarvaboshqamaj buriyto'lovlarbo'yichama'lumot;

2) Yig'iluvchanlikdarajasi;

3) Tekshiruv natijalari va ularning undirilishi to'g'risida ma'lumot (2-Nhisoboti);

4) Soliq qarzlari bo'yicha inkassa topshiriqnomasi qo'yilishi lozim bo'lgan nomzodlar ro'yxati;

5) Hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar va ularning undiruvchanligi to'g'risida ma'lumot (MVjadvali);

6) Ortiqcha to'lovlar yuzaga kelishi sabablari to'g'risidama'lumot;

7) Hisobot topshirmagan soliq to'lovchilar ro'yxati (yoki soliq to'lovchi tomonidan topshirilgan oxirgi hisobotlarro'yxati);

8) Belgilangan muddatlardan kechiktirib taqdim etilgan soliq hisobotlari to'g'risida ma'lumot;

9) Avans to'lovi hisoblanmasdan qolgan (yoki kam hisoblangan) korxonalarro'yxati;

10) Hisob raqamlardagi kiritilmasdan qolgan qoldiq summolari to'g'risidama'lumot;

11) Shaxsiy kartochkalarga provodka qilinishi lozim bo'lsada, provodkasi bosilmasdan qolgan summalar ro'yxati vasummasi;

12) STIR raqami qo'yilmasdan BANK dasturiga kiritilgan summalar ro'yxati yoki BANK dasturida mavjud bo'lib ShKlarga o'tkazilmagan to'lovlar yoki qaytarish (vozvrat), ko'chirish (perebroska)lar to'g'risidama'lumot.

➤ **Ma'lumotlar bazasini reviziyadan o'tkazishnatijalari:**

1) Yildan-yilga saldo (soliq qarzi, penya, to'lov muddatini uzaytirish, ortiqcha to'lov, manfiy qoldiq va ChSNNKNNP) summalarinio'tkazilishi;

2) ShKlarga kiritilgan to'lov (qaytarish)larni bankdan elektron ko'rinishda olingan tushumlar bilan solishtirib, noto'g'ri yoki noqonuniy kiritilgan summalarni aniqlash, shuningdek, to'lovni yoki qaytarish (vozvrat)ni boshqa soliq to'lovchi hisobiga kiritilganligi yoki kiritilmaganligini aniqlash;

3) Ro'yxatdan chiqarilgan korxonalarining soliq qarzlarini yoki ortiqcha to'lovlari qoldig'i, yoki qarzi bo'la turib ro'yxatdan chiqarilgan korxonalar ro'yxati, jumladan, bankrotlik alomatlarini bilan ro'yxatdan chiqarilgan korxonalar ro'yxati;

4) ShKda soliq qarzi bo'la turib (yoki hosil qilib) boshqa soliq turiga o'tkazilgan (yoki qaytarilgan) holatlar;


5) Hukumat bayonnomalariga asosan haqiqatda mavjud soliq qarzidan ko'p yoki kam miqdorda muddati uzaytirilgan yoki hisobdan chiqarilgan holatlar;

6) Soliq qarzi mavjud bo'lmasdan (yoki yetarli bo'lmasdan) inkasso topshiriqnomasi (jumladan, debitori hisobidan) orqali undirilishi natijasida yuzaga kelgan ortiqcha to'lovlarni aniqlash;

7) Shaxsiy kartochkalardagi noaniqliklarni (nalojeniyelar) aniqlash;

8) ShKga kiritilgan hisobotlarni to'g'ri o'tkazilganligi hamda ShKda mavjud bo'lib «Hisobotlar»da mavjud bo'lmagan va aksincha holatlarni aniqlash.

3-topshiriq. Davlat Soliq Qo'mitasining infratuzilmasini izohlang.



4-topshiriq. SIAIJ-4 dasturiy majmuasining modullari, bloklari va ularning vazifalarini izohlang.

5-topshiriq. SIAIJ-4 dasturiy majmuasining modullari, bloklari «Yuridik shaxslar hisobini va shaxsiy kartochkalarini yuritish» dasturiy majmuasi quyidagi asosiy modullardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida bir nechta bamlardan tashkil topgan hamda tegishli funksiyalarni bajarishga mo'ljallangan:

1. Administratormoduli:

- Пользователи –Foydalanuvchilar;
- Справочники –Ma’lumotnomalar;
- Формализатор – soliq turlari to‘lov muddatlari va davriyligini sozlash funksiyasi (faqat respublika darajasiga ruxsatbor);
- Заккрытие года – Yilniyopish;
- Формирование итогового сальдо – ma’lum sanaga barcha ShKlarda penya hisoblash;
- Отправить почту – Korxonaning ShKlarini yuborish;
- Принять почту – Korxonaning ShKlarini qabul qilish;
- БЛпочта – BL-Pochta shakllantirish.

6-topshiriq. Soliq instpektorining Avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-4)ning Ish oynasida joylashgan papkalarini izohlang.



7-topshiriq. Keltirilgan matni o‘qib 5 minutlik esse yozing.

Davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchi yuridik shaxslar hisobi va ularning soliq majburiyatlarining yuritilishi 1995 yildan buyon avtomatlashtirilgan bo‘lib, SIAIJ dasturiy majmuasi hozirgi kunga qadar takomillashtirib kelinmoqda. Jumladan:

SIAIJ - 1 – 1995-yildan

SIAIJ - 2 – 2000-yildan

SIAIJ - 3 – 2004-yildan

SIAIJ - 4 – 2010-11-yillardan amaliyotga joriy etilgan.

SIAIJ dasturiy majmua yordamida soliq organlari oldiga qo‘yilgan quyidagi bir qator vazifalar soliq to‘lovchining elektron ko‘rinishdagi shaxsiy kartochkalarida avtomatik tarzda amalga oshirib kelingan:

- soliq to'lovchini hisobga olish va uning rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotlar hisobini yuritish;
- soliq majburiyatlari, ya'ni hisoblangan va to'langan soliqlar hisobi;
- soliq qarzi, shuningdek, to'lov muddati uzaytirilgan soliq qarzi va hisoblangan penya summalari va ularni undirish maqsadida qo'yilgan inkasso talabnomalari hisobi;
- Respublika komissiyasi bayonnomalari va boshqa qonun hujjatlariga asosan to'lov muddati uzaytirilgan va hisobdan chiqarilgan soliq qarzlari hamda penyalar hisobi;
- ortiqcha to'langan mablag'lar va ularni boshqa soliq turidagi soliq qarzi hisobiga o'tkazish yoki soliq to'lovchiga qaytarish yuzasidan hisob-kitoblar;
- tekshiruvlar natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar, moliyaviy jarimalar va penyalar hisobi;
- boshqa moliyaviy sanksiyalar hamda hisoblangan penyalar hisobi.

8-topshiriq. Davlat soliq qo'mitasining 2010 yil 22 yanvardagi 13-sonli buyrug'iga asosan davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etilgan nomlari ro'yxatini kiling.

9-topshiriq. Davlat soliq qo'mitasining ADP asoslangan Dasturiy mahsulotlarini nomining izohlab qayerda ishlatilishini ayting.

№	Dasturiy mahsul nomi	Mazmuni
1	KADR	O_zbekiston Respublikasi DSQning hodimlarining yagona restri (DSI, DSB, DSQ)
2	Koord_GNI	Respublika tekshiruvlar reja – jadvali ijrosini shakllantirish va nazorat qilish dasturi (DSI, DSB, DSQ).
3	AdmPrac	«Ma'muriy amaliyotni hisobga olish» dasturiy majmuasi
4	Apray	«Davlat soliq organlari tomonidan tekshirishlar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladigan baza, mavjud ma'lumotlar asosida hisobotlarni yuritish va tahlil qilish» dasturiy mahsuli.

10-topshiriq. Davlat soliq qo'mitasining ADP asoslangan Dasturiy mahsulotlarini nomining izohlab qayerda ishlatilishini ayting.

№	Dasturiy mahsul nomi	Mazmun i
5	NED_GNI	«Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga qarzdorliklar hisobini yuritish» dasturiy mahsuli.


6	N1Ray, N1RayPF, N1RayDF, N1RayShF	«1-N: Byudjet va byudjetdan tashqari Davlat maqsadli jamg'armalariga mablag'lar tushumi hisobi» dasturiy majmuasi
7	ELEKTR_9	«Yuridik shaxslar tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni amalga oshirilishini nazorat qilish va to'lov muddati o'tgan qarzlarni qisqartirish natijalari tahlilini olib borish» dasturiy mahsuli.
8	CARN 3	«Soliq to'lovchi yuridik shaxslar varaqasi» dasturiy majmuasi
9	YER SOLIG'I	«Yuridik shaxslar yer (yagona yer) solig'i bo'yicha hisobotini yuritish» dasturiy majmuasi
10	Musodara 2005	«Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni hisobga olish, baholash va sotishdan tushgan pul mablag_larni to'liq va o'z vaqtida byudjetga tushishini nazorat qilish » dasturiy mahsuli
11	EReports 2006	Davlat soliq organlarida soliq to'lovchilarning soliq va moliyaviy hisobotlarini elektron shaklda qabul qilishva statistik ma'lumotlarni shakllantirish dasturiy majmuasi

11-topshiriq. Rasmda keltirilgan intratuzilmani izohlang.



12-topshiriq. DSQ qo'llaniladigan ADP foydalangan holda VENN DIAGRAMMASINI tuzing.

13-topshiriq. Soliq tizimida Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalaridan foydalanishini tushintirib bering.



14-topshiriq. Soliq to'lovchi yuridik shaxslarning elektron shakldagi hisobotini izohlang.

- hisobot.soliq.uz
- www.soliq.uz (Interaktiv hizmatyuridik shaxslar uchun)
- EREPORTS V3.0
- [EREPORTS V3.0 dasturiy maxsulni](#)

15-topshiriq. Soliq tizimidagi interaktiv xizmatlarini izohlang.

Byudjet bilan hisob

kitoblar

Soliqlarni hisoblash elektron

kalkulyatori

To'lov topshiriqnomalarini

shakllantirish

Soliq qarzi mavjud emasligi to'g'ri

ma'lumotnomalar berish



Mavzuga oid savollar:

1. Soliqlarning mohiyati va ahamiyati nimadan iborat ?
2. Soliq tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning zaruriyati va dolzarbligi?
3. Soliq xizmati organlarida axborot tizimi hamda axborot texnologiyalarining shakllanishi va huquqiy asoslari Davlat soliq xizmati organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi?
4. Soliq xizmati organlaridagi axborot tizimlari va texnologiyalarining vazifalari nima?
5. Soliq idoralarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasi qanday tashkil qilingan?


14-mavzu. G'aznachilikda axborot komplekslari va texnologiyalari

REJA:

1. G'aznachilik haqida tushuncha.
2. G'aznachilik faoliyatida axborot texnologiyalarining qo'llanish asoslari.
3. G'aznachilik faoliyatidagi amaliy dasturiy paketlar (AMP).
4. DMBAT, ISUIGF, UzASBOning ishlash texnologiyasi.

1-topshiriq. Mablag'larni o'tkazmalar reestrlari rasmini izohlang.

Mablag'larning o'tkazmalari reestrlari



2-topshiriq. G‘aznachilikning AAT “Mijoz-serveri”ning ishlash texnologiyasini izohlang.

3-topshiriq. G‘aznachilikda ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari – MBBT oshirilish jarayonlarini ifodalang.

Yordam: Bu MBBT uchun platforma sifatida UNIX ham, Windows NT ham namoyon bo‘lishi mumkin. Axborot uzatish tarmoq protokollari sifatida – TCP/IR, IRX/SPS qatnashadi. Bu amaliy dasturlarning keng spektridan, jumladan, MSDOS, Novell, Windows Z.X. uchun bajarilgandan ham foydalanishga imkon beradi

4-topshiriq. Keltirilgan matnni o‘qib 5 minutlik esse yozing.

Matn: G‘aznachilikda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini shakllantirish uchun maxsus kommunikatsiya tizimlari tashkil etiladi. Ma’lumotlar uzatilishi telefon va telegraf aloqa kanallari bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatning ulkan hududi bo‘ylab tarqalgan tashkiliy strukturalar uchun korporativ kommunikatsion qarorlar tuzish doirasida telefon aloqa tizimi va umumiy foydalanishdagi regional komp’yuter-tarmoq qarorlari juda istiqbolli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda xalqaro aloqa tizimi “Kvant” seriyali nisbatan zamonaviy kvazi elektron stansiyalar qo‘llanishiga asoslangan. Ular yagona xalqaro kodlardan foydalangan holda, operator ishtirokisiz abonent nomerini terishga imkon beradi. Bu stansiyalardan foydalanish kommutirlanuvchi kanallar bo‘yicha avtomatlashtirilgan axborot ayirboshlashni takshil etishga imkon hosil qiladi. Bunda telefon modemlari bilan jihozlangan va amaliy aloqa dasturiy ta’minotiga mutanosib komp’yuterlardan foydalaniladi. Ayirboshlash tezligi ancha sezilarli kattalikda – 12000 dan 28 000 bod va undan yuqoriga erishadi (ajratilgan aloqa kanallarida ma’lumot uzatish tezligi 1,5 Mb ga etishi mumkin).

Masofaviy abonentlar o‘rtasida axborot ayirboshlashning sezilarli trafigida yoki ishtirokchilari o‘rtasida bog‘lanish mumkin. Bunda axborot uzatish bor-yo‘qligidan qat’iy nazar aloqa liniyasi fizik darajada krossirovka orqali jamlangan va doimo mavjud bo‘ladi. Shaharlararo va shahar (tuman) telefon ekspluatatsiyasi tashkilotlari ijara shartnomasi shartlarida doimiy foydalanishdagi kanal sig‘imini ajratib ko‘rsatadi. Bunday kanallar ijarasining salmoqli qiymatini hisobga olib, ularni texnik-iqtisodiy asoslash bilan tasdiqlangan zarur hollardagina qo‘llash talab etiladi.

Shaharlararo telefon asosining kommutatsiyalangan kanallaribo‘yicha axborot ayirboshlashni takshil etishdauzatish xarakteristikasi barqarorligiga obonentlarni bog‘lashda tizim tomonidan avtomatik ravishda ajratiluvchi fizik aloqa kanallari sifati sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, shuni e’tiborga olish kerakki, aloqa liniyasining g‘oyat uzunligi, uskunaning va alohida uchastkalarda uzatish liniyalarining jismoniy eskirishi kommutatsiyalanuvchi kanallar bo‘yicha telefon modem aloqasi ishonch-liligini ancha pasaytiradi. Hozirgi vaqtda sifatli modemlar va ixtisoslashtirilgan kommunikatsion amaliy dasturiy ta’minot bazasida Davlat g‘aznachilik organlari axborot texnologiyalarini shakllantirish uchun samarador maydon sifatida foydalaniladi. Bunda ular ma’lumot uzatishning yo‘naltirilgan virtual kanallarida real vaqt bo‘yicha ish yuritadilar, jumladan, masofaviy terminallardan markaziy ma’lumotlar serveriga ma’lumot uzatishdaaxborotni noqonuniy kirishdan himoyalash bilan shug‘ullanadilar.


Shunday qilib, g‘aznachilikning avtomatlashtirilgan axborot tizimi integratsiyalangan apparat-dasturiy tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, alohida axborot – texnologik

apparat – dasturiy vositalarni va turli darajadagi Davlat g‘aznachilik organlari tizimini, jumladan. Lokal hisoblash tarmog‘, alohida avtomatlashtirilgan ish joylari va terminallar, bu muassasalar tasarrufida bo‘lgan kommunikatsion komp’yuter tizim va vositalarini birlashtiradi.

G‘aznachilikning avtomatlashtirilgan axborot tizimi byudjet jarayonining jami ishtirokchilari o‘rtasida kelishilgan formatdagi ma’lumotlar operativ va samarali axborot ayirboshlanishini amalga oshirish imkonini taqdim etadi.

Bunda Davlat g‘aznachiligi Bosh boshqarmasi, Respublika subyektlari bo‘yicha Davlat g‘aznachiligi boshqarmasi, Davlat g‘aznachilikning hududiy organlari kabi davlat g‘aznachiligi organlari, byudjet mablag‘larini olish, o‘tkazish va nazorat qilishda ishtirok etuvchi boshqa muassasa, tashkilot va korxonalar xam ishtirok etadi.

5-topshiriq.DMBATni o‘zaro integratsiyasini izohlang



6-topshiriq. Mavzuga oid 5-ta test tuzing.

7-topshiriq.UzASBO ADP KLASTER tuzing.

Mavzuga oid savollar

1. G‘aznachilik nima va u qanday funksiyalarni bajaradi?
2. G‘aznachilik organlarining avtomatlashtirilgan axborot texnologiyasi qanday vazifalarni hal etishga mo‘ljallangan?
3. G‘aznachilikda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini tashkil etishda qanday sxemalar qo‘llaniladi?
4. G‘aznachilikda AAT terminal arxitekturasiga tavsif bering.
5. “Mijoz-server” arxitekturasining mohiyati nimada?
6. G‘aznachilik organlari aloqa tizimi qanday tashkil etiladi?
7. G‘aznachilik AAT yaratish va ishlab chiqishga asosiy xarajatlarni sanab o‘ting.

15-mavzu. Elektron hukumat asoslari


REJA:

1. Elektron huqumat haqida tushuncha.
2. Davlat boshqaruvida interaktiv xizmatlardan foydalanish jarayonlari.
3. Interaktiv xizmatlar tizimining ishlash texnologiyasi.

Bilib olasiz:

Elektron huqumatni. G2G, G2B, G2C modellarini, interaktiv xizmat turlarini. Elektron huqumatda mavjud axborot tizimlar kompleksini. Elektron hujjatni, elektron hujjat aylanish tizimlarini, Documentum tizimini, 1C:Dokumentooborot tizimini, Docs Open, Docs Fusion tizimlarini, Lan Docs hujjat aylanish tizimlarini.

1-topshiriq. “Elektron hukumat” tizimi arxitekturasini izohlab bering.




2-topshiriq. Davlatning interaktiv xizmatlarinig izohlab bering.




3-topshiriq. Interaktiv xizmatlarda joriy etilgan imkoniyatlarni izohlang.



4-topshiriq. Interaktiv xizmatlarda joriy etilgan tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish xizmatlarini izohlang.



5-topshiriq. Interaktiv xizmatlarda joriy etilgan baholash tizimining ishlash texnologiyasini izohlang.



6-topshiriq. Interaktiv xizmatlarda joriy etilgan baholash tizimiga tegishli 5 ta test tuzing va izohlang.


7-topshiriq. “Interaktiv xizmatlar” so‘ziga KLASSTER tuzing.

8-topshiriq. “Elektron hukumat” mavzusiga SWOT tahlil yarating.

9-topshiriq. Elektron hujjat aylanish tizimining asosiy elementlarini izohlab bering.


Elektron hujjat aylanish tizimining asosiy elementlari

Hujjat aylanishning har qanday tizimi quyida yoritib beriladigan elementlarni har birini o‘z ichiga olishi mumkin




M.Yu.Jumaniyazova

10-topshiriq. Milliy e-Hujjat elektron hujjat aylanish tizimining ishlash texnologiyasini izohlang.



11-topshiriq. Jahon bozorida mavjud elektron hujjat aylanish tizimlari va ularning ishlash texnologiyasi (guruhda ishlash uchun 3 ta talaba).



12-topshiriq. Infox. 2.0 - Tashkilotlararo elektron hujjat almashish axborot tizimining ishlash texnologiyasini izohlang.

13-topshiriq. Mavzuga oid ped texnologiyani izohlang.

Muommoli Vaziyat: Ozbekiston Respublikasi korhonalari tizimininghimoyalani darajasi qarab qaysi elektron hujjattizimidan foydalanganlari ma’kul

Elektron hujjat aylanishining dasturiy mahsulotlari imkoniyatlari	B-R	GD	D	E-D	CM	D	DIS	DV	LD	O-W	EH ²
Foydalanuvchilarni parol orqali tasdiqlash	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Hujjatlarni shifrlash	+/-	+	+/-	+	+/-	+	+	+	+/-	+	+
Elektron raqamli imzo bilan himoyalani sh	+/-	+	+/-	+	+/-	+	+	+	+/-	+	+
Ma’lumotlar bazasidan jadval bo’yicha rezervli nusxa ko’chirish	+	-	+	+	+	+	-	+	+	+	-/+
JAMI	2+1	3	2+1	4	2+1	4	3	4	2+1	4	3+1

Izoh;

- + imkoniyat mavjud
- imkoniyati yo’q
- +/- qo’shimcha yordam (alohida standartlar ERI, maxsus kriptografik usullar yordamida amalga oshiriladi)

14-topshiriq. Elektron hujjat aylanish tizimiga tegishli 5 ta test tuzing va izohlang.

15-topshiriq. “e-hujjat” to’lov tizimiga KLASTER tuzing.

16-topshiriq. “Elektron hujjat” mavzusiga SWOT tahlil yarating.

Mavzuga oid savollar:

1. Elektron hukumat o’zi nima?
2. Elektron huqumatni qo’llab-quvvatlash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
3. Elektron hukumatda interaktiv xizmatlar qanday amalga oshiriladi?
4. Elektron hukumat modellarini sanab bering.

²Boss-Referent (B-R), GranDok (GD), Delo (D), EVFRAT-Dokumentooborot (E-D), CompanyMedia (CM), Directum (D), DIS-sistemi (DIS), DocsVision (DV), LanDocs (LD), Optima-Workflow (O-W), E-hujjat(EH).

16-mavzu. Elektron tijorat texnologiyasi


REJA:

1. Elektron tijorat tushunchasi va ta'rifi.
2. Elektron tijorat bozorining tarkibiy tuzilishi.
3. Elektron tijorat modellari.
4. O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish munosabatlari.


Bilib olasiz:


Elektron tijorat ta'rifini, Global elektron biznesdagi informatsion-kommunikatsion texnologiyalar(IKT) turlari va vazifalarini. Elektron biznes modellari va vazifasini. Elektron biznesning avfzalliklarini va rivojlanish bosqichlarini.

1-topshiriq. Elektron biznesning turlarini sanab bering.




4-topshiriq. Rasmda keltirilgan elektron biznes modelini tushintirib bering.







Berilayotgan ma'lumotlarning yagona standarti - EDI (ELECTRONIC DATA INTEREXCHANGE) dan foydalaniladi.

3-topshiriq. Elektron tijoratning turlarini sanab bering.




4-topshiriq. Rasmda keltirilgan elektron biznes modelini tushintirib bering.






5-topshiriq. Elektron biznesning turlarini sanab bering.




6-topshiriq. Elektron tijorat bozorining sektorlarini tushintirib bering.




1. Bo‘lim – bu davlat tomonidan amalga oshirildan shart sharoitlar. Bularga **Government(Davlat)-Administration(Ma‘muriyat organlari)** nazarda tutiladi.
2. Bo‘lim – bu yuridik shaxslar nazarda tutiladi. Bularga **Business(Biznes-korxonona yoki firmalar)- Investors(Investorlar yoki sarmoya kiritadigan yuridik shaxlar)** nazarda tutiladi.
3. Bo‘lim – bu jismoniya shaxslar. Bularga (**Customer, Citizen – xaridorlar**) nazarda tutiladi. Bu bo‘lim elektron tijoratni eng ko‘p tarqalgan turi bo‘lib, birinchi ish olib borayotgan bo‘limlardan biri hisoblanadi.


7-topshiriq. Elektron tijoratda web saytni rasmilashtirishni tushuntirib bering.



8-topshiriq. Elektron tijorat operatsiyalari biznesga qanday ta‘sir qiladi.



9-topshiriq.Elektron tijoratning mavjudlik xaritasini ingliz tilida izohlab bering.



Mavzuga oid savollar:

1. Elektron biznes turlari?
2. Elektron biznesda qo'llaniladigan IKT?
3. Global elektron biznesning kamchiliklari.
4. Elektron biznesda to'lov tizimlari
5. O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish istiqbollari.
6. Global elektron biznes o'zi nima?
7. O'zbekistonda Internetdan foydalanishning ahvoli.
8. Elektron tijoratda korxonalar va uning birinchi qadamlari.
9. Elektron tijorat samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari.
10. Elektron biznesda qollaniladigan axborot tizimlari?
11. Korxonalar saytlarini ishlab chiqishdan maqsad va uning muvaffaqiyati omillari.
12. Mijozlar bilan o'zaro aloqa muammolari va yechishdagi shartlar.
13. Global elektron biznes afzalliklari.
14. Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarning boshqaruv tizimi tasnifi.
15. Elektron va an'anaviy biznes. Elektron biznes afzalligi.
16. Elektron bozorda korxonalar va xaridorlar turlari.

17-mavzu. Kompyutertarmoqlariga asoslangan masofaviy ta'lim tizimi


REJA:

1. Masofaviy ta'lim tizimi haqida tushuncha.
2. Kompyuter tarmoqlariga asoslangan masofaviy ta'lim tizimlari.
3. O'zbekistonda qo'llaniladiga masofaviy ta'lim tizimlari.

Bilib olasiz:

LMS tizimlarining ishlash texnologiyasi, masofaviy ta'lim modellari, On-line ta'limni ishlash texnologiyasi, moodle tizimining ishlash texnologiyasi va h.q.

1-topshiriq. Masofaviy ta'lim tizimining modellarini izohlang.




2-topshiriq. Masofaviy ta'limning texnologiyalari va unda qatnashuvchilarni izohlang. Misol tariqasida tushuntiring.

3-topshiriq. Masofaviy ta'lim tizimida INTERAKTIV texnologiyalari jadval asosida izohlang.

Internet masofaviy ta'lim portali. Video va audio konferensiyalar. Elektron pochta orqali ta'lim. Internet orqali mustaqil ta'lim olish. Uzoqdan boshqarish sistemalar. Onlayn simulyator va o'quv dasturlar. Test topshirish sistemalari.	
--	--

4-topshiriq. Crocodile ICT dasturida yaratilgan ayrim modellarni izohlab bering.



5-topshiriq. Masofaviy ta'lim tizimiga asoslangan electron ta'lim tizimini izohlab tushintirib bering.



6-topshiriq. Masofaviy ta'lim tizimiga tegishli 5 ta test tuzing va izohlang.

7-topshiriq. "e-study" so'ziga KLASSTER tuzing.

8-topshiriq. "Kompyuter tarmoqlariga asoslangan masofaviy ta'lim tizimi" mavzusiga SWOT tahlil yarating.

Mavzuga oid savollar:

1. Masofaviy ta'lim tizimining afzalligi.
2. LMS tizimi nima?
3. Masofaviy ta'limda qanday tizimlar ishlatiladi?
4. CMS tizimi nima?
5. MOODLE tizimining ishlash texnologiyasi?
6. Masofaviy ta'lim tizimi modellari?
7. Elektron darslik nima?
8. Virtual universitet nima va uning turlari?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Kenneth C.Loudon, Jane P.Loudon. Management Information Systems. New York, 2016. Page 669.;

2. Akayev A.A., Kenjabayev A.T., Ilxamova Yo.S., Jumaniyozova M.Yu. Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari. Darslik.T.-“O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”. 2019.- 510 bet.;

3. Kenjabayev A.T., Ikramov M.M., Allanazarov A.A.. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. O‘quv-qo‘llanma.T.-“O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”. 2017.- 408 bet;

4. Информационные технологии в экономике и управлении: учебник /под ред. проф. В.В. Трофимова.2-е изд., перераб. и доп.- М.: Юрайт, 2016.-482с.;
Автоматизированные информационные технологии в экономике: учебник / Под ред. проф. Г.А. Титоренко. 2-е изд. Перераб. и доп. - М.: Юнити, 2015. -399 с..

Qo‘shimcha adabiyotlar:

5. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni;

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.;

7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.;

8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.;

9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b..

Internet saytlari:

10. www.gov.uz. –(O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali);

11. www.my.gov.uz – (Davlat interaktiv xizmatlari portali);

12. www.lex.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi);

13. www.udemy.com –(ochiq kodli ommoviy on-line kursi);

14. www.KhanAcademiya.com – (ochiq kodli ommoviy on-line kursi);

15. www.http://el.tfi.uz– (Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi);

16. www.catback.ru – (научные статьи и учебные материалы по экономике).

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-mavzu: Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari fanining predmeti, vazifalari va maqsadi.....	4
2-mavzu: Axborot komplekslarining texnik va dasturiy taminoti.....	6
3-mavzu. Axborot komplekslarida ma'lumotlar bazasini tashkil etishva boshqarish.....	18
4-mavzu. Iqtisodiy sohalarda axborot komplekslari o'rtasidagi o'zaro integratsiyasi.....	21
5-mavzu. Tarmoqlangan axborot texnologiyalari.....	23
6-mavzu. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari.....	28
7-mavzu. Axborot komplekslarida qarorqabul qilish va ekspert tizimlari..	30
8-mavzu. Axborot komplekslarida xavfsizlikni tashkil etish jarayonlari	33
9-mavzu. Bank tizimida axborot komplekslari va texnologiyalari.....	36
10-mavzu. Menejment sohasi axborot kompleksi va texnologiyalari.....	40
11-mavzu. Buxgalteriya hisobida axborot kompleksi va texnologiyalari...	45
12-mavzu. Sug'urta faoliyatida axborot komplekslari va texnologiyalari.....	48
13-mavzu. Soliq tizimida axborot komplekslari va texnologiyalari.....	51
14-mavzu. G'aznachilikda axborot komplekslari va texnologiyalari.....	59
15-mavzu. Elektron hukumat asoslari.....	62
16-mavzu. Elektron tijorat texnologiyasi.....	67
17-mavzu. Kompyuter tarmoqlariga asoslangan masofaviy ta'lim tizimi..	71
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	74

**YAKUBOV U.K., ILXAMOVA YO.S.,
JUMANIYAZOVA M.YU.**

**“IQTISODIYOTDA AXBOROT KOMPLEKSLARI
VA TEXNOLOGIYALARI”**

fanidan

**AMALIY MASHG‘ULOTLAR OLIB
BORISH UCHUN**

USLUBIY QO‘LLANMA

Muharrir: M.Mo‘minova

Sahifalovchi: N.Niyazova

Bosmaxona guvohnomasi № 10-1289

Bosishga ruxsat etildi 28.08.2019 y. Bichimi 60x84_{1/16}

Nashr hisob tabog‘i 4,75 b.t. Adadi 3. Buyurtma № 29.

Toshkent Moliya institutida rizografiya
usulida chop etildi.

100000, Toshkent, Amir Temur shoh ko‘chasi 60^a uy.